



UDK: 82-311.6

Kamola XAYRULLAYEVA,
Osiyo xalqaro universiteti, PhD
E-mail: khayrullayevakamola95@gmail.com

BuxDU professori, f.f.d D.Quvvatova taqrizi asosida

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА БАБУРСОВ В НАУЧНЫХ ТРУДАХ Дж.НЕРУ И С.М. ДЖАФФАРА

Аннотация

Основной целью нашего исследования является анализ литературных произведений, посвящённых империи Бабур, правившей Индии более трёх веков и оставившей неизгладимый след в истории этого государства. Только в англоязычной индийской литературе создано более десятка исторических, научных и биографических романов, повествующих о правителях династии Бабур. В данной статье рассматривается интерпретация образа Бабур в научных трудах Джавахарлала Неру и Сардара Мухаммада Джаффар, одного из известных индийских историков.

Ключевые слова: Индия, Бабуры, Захириддин Мухаммад Бабур, Хумаюн Мирза, Акбаршах, Аурангзеб Аламгир, Джавахарлал Неру, Сардар Мухаммад Джаффар.

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE BABURIDS IN THE SCIENTIFIC WORKS OF J. NEHRU AND S.M. JAFFAR

Annotation

The main goal of our research is the analysis of literary works dedicated to the Baburids Empire, which ruled India for more than three centuries and left an indelible mark on the history of this state. In English-speaking Indian literature alone, more than a dozen historical, scientific and biographical novels have been created that tell the story of the Baburids rulers. This article examines the interpretation of the image of the Baburids in the scientific works of Jawaharlal Nehru and Sardar Muhammad Jaffar, one of the famous Indian historians.

Key words: India, Baburids, Zahiriddin Muhammad Babur, Humayun Mirza, Akbar Shah, Aurangzeb Alamgir, Jawaharlal Nehru, Sardar Muhammad Jaffar.

J.NERU VA S.M.JAFFAR ILMIY ASARLARIDA BOBURIYLAR OBRAZI TALQINI

Annotatsiya

Hindistonda uch asrdan oshiqroq hokimiyat boshqaruvida bo'lgan va ushbu davlat tarixida o'chmas iz qoldirgan Boburiylar Imperiyasiga bag'ishlangan badiiy asarlar tahlili tadqiqotimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Birgina inglizxon hind adabiyotida Boburiy hukmdorlar tarixi xususida hikoya qiluvchi o'ndan ortiq tarixiy, ilmiy hamda biografik romanlar yaratildi. Ushbu maqolada hindistonlik mashhur tarixchi olimlardan biri hisoblangan Javoharla'l Neru hamda Sardor Muhammad Jaffar ilmiy asarlarida yaratilgan Boburiylar obrazi talqini ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Hindiston, Boburiylar, Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun Mirzo, Akbarshoh, Avrangzeb Alamgir, Javoharla'l Neru, Sardor Muhammad Jaffar.

Kirish. Tarixga nazar tashlasak, ma'lum hududda boshqaruvni o'z qo'liga olgan bo'lsa-da, butun dunyoni larzaga sola olgan davlatlar sanoqli. Rim Imperiyasi, Buyuk Usmoniylar Imperiyasi, Temuriylar davlatchiligi yoki Xorazmshohlar davlati shular jumlasidandir. Tarixi uzoq ming yilliklarga borib taqaluvchi Hindistonning ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyotshunoslik sohalarida yuksak cho'qqilarga chiqishida muhim davr - XV-XVIII asrlar Boburiylar hukmronligi davri hisoblanadi. Buyuk Imperiya asoschisi Zahiriddin Bobur Mirzo va uning keyingi avlodlari tarixi, hayot yo'li dunyo olimlari, tarixchilarining qiziqishini uyg'otdi. Ular boshdan kechirgan voqea-hodisalar xususida hikoya qiluvchi ko'plab tarixiy-biografik romanlar, qissa va hikoyalari yozildi. Birgina inglizxon hind adabiyotida Bobur Mirzo hamda Boburiy hukmdorlardan bo'lgan Humoyun Mirzo, Akbarshoh, Shohjahon Mirzo va Avrangzeb Alamgir haqida o'ndan ortiq tarixiy romanlar yaratilgan.

Inglizxon hind yozuvchilaridan Ira Mukhoty Boburiylar davri tarixiga qiziqish bildiradi hamda 2 buyuk asarni yaratadi. Ulardan biri 13 yoshida otasining bevaqt o'limi sabab taxtga o'tirgan, butun Hindiston tarixida eng buyuk

hukmronlardan biri sifatida e'tirof etiluvchi Humoyun Mirzoning o'g'li Akbarshoh tarixiga bag'ishlangan "Akbar: the great Mughal" romanidir. Adibaning aynan Akbarshoh tarixi bilan qiziqishi ham bejizga emasdi. Akbarshoh ham harbiy sohada, ham davlat boshqaruvida tengsiz hukmdor edi. Uning hukmronligi davrida ta'lim, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot sohalarida katta o'zgarishlar qilindi, oddiy xalq yashash sharoitlari yaxshilandi, ijobiy o'zgarishlar qilindi. Ira Mukhoty qalamiga mansub asar ham aynan Hindiston tarixidagi mana shu "Oltin davr" haqida hikoya qiladi. Adiba yozgan ikkinchi asar "Daughters of the Sun: Empresses, Queyens and Begums of the Mughal Empire" deb nomlanadi. Ko'pincha, yozuvchilar hukmdorlar hayoti, harbiy yurishlari, siyosiy faoliyati haqida asarlar yozishadi, ammo Ira Mukhoty qo'lida biror kuch-qudrati bo'lmasa-da, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan, hukmdorlarga o'z ta'sirini o'tkaza olgan Boburiylar sulolasiga mansub ayol va qizlar haqida yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu asarda Bobur Mirzoning opasi 65 yoshida ham 750 kilometrlik masofadagi muzli o'lkalarni otda bosib o'ta olgan Xonzoda Begim; Bobur Mirzo, Humoyun Mirzo, Akbar davri xususida ma'lumot

beruvchi "Humoyunnoma" asari muallifi Gulbadan Begim; 13 yoshida taxtga o'tirgan Akbarshohni davlat boshqaruvida qo'llab turgan Mohim enaga kabilar tarixi ochib berilgan.

Yana bir ingliz zabon hind yozuvchisi Jadunath Sarkar 1964-yilda o'zining "Fall of the Mughal Empire" nomli asarini chop ettiradi. O'z nomidan ham ma'lumki, ushbu asar ham Boburiylar sulolasining ingliz harbiylari tomonidan qulatilishi tarixi xususida ma'lumotlarni bayon etadi.

Tahlil va natijalar. Shuni ham eslatib o'tish joizki, ingliz zabon hind adabiyotida yaratilgan tarixiy-biografik romanlar bilan bir qatorda, ushbu sulola tarixi xususida so'z yurituvchi ilmiy hamda ensiklopedik asarlar ham adabiyotshunoslikda alohida o'rin egallaydi. Jumladan, tarixchi, siyosatchi va adabiyotshunos olim sifatida nom qozongan hindistonlik Javohar'l Neruning "Discovery of India" ("Hindistonning kash etilishi") tarixiy-ilmiy asaridagi bir necha boblar aynan Boburiylar tarixiga bag'ishlanadi. Adib ushbu boblarda Boburiylar sulolasi davrida davlat boshqaruvi tizimi, harbiy sohada erishilgan yutuqlar, ma'daniy-ma'rifiy hayot xususida so'z yuritadi. Adib o'z asarida Boburiylar hukmronlik davri bilan XIX asarda Hindistonda boshqaruvi o'z qo'lga olgan ingliz muxolifatchilari o'rtasidagi asosiy farq nimada ekanligi xususida shunday yozadi: "The invaders who came to India from the north-west, like so many of their predecessors in more ancient times, became absorbed into India and part of her life. Their dynasties became Indian dynasties and there was a great deal of racial fusion by intermarriage. A deliberate effort was made, apart from a few exceptions, not to interfere with the ways and customs of the people. They looked to India as their home country and had no other affiliations. India continued to be an independent country. The British remained out-siders, aliens and misfits in India, and made no attempt to be other-wise. Above all, for the first time in India's history, her political control was exercised from outside and her economy was centered in a distant place. They made India a typical colony of the modern age, a subject country for the first time in her long history" [5]. Tarixchi olim J.Neruning nazarida, Zahiriddin Bobur va uning avlodlari Hindiston uchun begona bo'lishgan, ammo shunga qaramasdan ular bu yerdagi hayot tarziga moslashib, mahalliy aholi bilan bir butundek hayot kechirishdi, natijada esa Hind-Mo'g'ul davri boshlanadi. Sulola vakillari bu yurtga o'z ona yerlaridek qarab, hindistonliklar bilan nikoh qurish orqali aloqalarni yanada yaxshilashga erishishadi, Hindiston esa mustaqil davlat bo'lishda davom etadi. Britaniyalik muxolifatchilar esa, aksincha, bu yurt uchun kelgindiligicha qolaveradi. Hindiston o'z tarixi davomida ilk marotaba mustamlaka davlatga, aholisi esa qulga aylantiriladi. Bobur Mirzo o'z biografiyasida yozib qoldirganidek, Hind diyoriga kelishdan asosiy maqsad ham aslida bu yurtni o'z ona Vatandek ko'rib, farovonligi uchun o'z hissasini qo'shish bo'lgan.

Javohar'l Neru Hindistonda buyuk Imperiya asoschisi Zahiriddin Bobur haqida fikr yuritib, shunday deydi: "Babar is an attractive person, a typical Renaissance prince, bold and adventurous, fond of art and literature and good living. As a warrior he conquered large parts of India, but his eyes were set on another and more enduring conquest, the conquest of the minds and hearts of the people. In him the old dream of a united India again took shape, united not only politically in one state but organically fused into one people" [5]. Neruning ta'kidlashicha, Bobur haqiqiy Renesans shahzodasi, sayohat, san'at va madaniyat, adabiyot ixlosmandi bo'lgan. Jangchi sifatida, uning asosiy maqsadi Hindistonni qo'lga kiritish emas, balki hind xalqi qalbi, shuuridan o'rin olish bo'lgan.

S.M.Jaffar ham Hindistonda ulkan imperiya asoschisiga nisbatan quyidagi fikrlarni yozadi: "Upon the whole if we review with impartiality the history of Asia, we

shall find few princes who are entitled to rank higher than Babar in genius and accomplishments. His grandson, Akbar, may perhaps be placed above him for profound and benevolent policy. The crooked artifice of Aurangzeb is not entitled to the same distinction" [2]. Yozuvchining nazarida, tarixni xolisona o'rganib chiqsak, aql-u zakovatda Boburga teng keluvchi biror Osiyo shahzodasini topish juda mushkul. Uning nabirasi Akbarshoh oqilona siyosati, davlat boshqaruvidagi iqtidori nuqtayi nazaridan ham Boburga tenglasha olmaydi, keyingi avlodlaridan Avrangzeb ham o'zining ayyorona hiylanayranglar bilan dushmanlarini chuv turgan bo'lsa-da, bunday maqomga munosib emas. Boburning ikki buyuk bobokalonlari Amir Temur va Chingizxon harbiy sohada tengsiz edilar, ammo Boburning barcha podshohlarda ham uchramaydigan ijtimoiy fazilatlarini, adabiyotshunoslikka nisbatan cheksiz muhabbati, san'at, madaniyat, bog'dorchilik rivoji uchun qo'shgan hissasi jihatidan hech bir Osiyolik hukmdor uning yoniga tusha olmasdi.

Bobur Mirzo Hindistonda buyuk davlat tuza oldi, ammo bevaqt o'lim sabab o'z hokimiyatini mustahkamlashga ulgura olmadi. Uning vorisi Humoyun Mirzo esa otasi meros qilib qoldirgan davlatni qo'lida ushlab turish va yanada kengaytirish uchun yetarli darajada aql-zakovatli va kuchli emas edi. S.M.Jaffar yozib qoldirishicha, Humoyun Mirzo muvaffaqiyatsizligida asosiy omil- bu uning ko'ngli bo'shligi va yumshoq tabiatligida edi. "Boburdan Avrangzebgacha bo'lgan davrda Mo'g'ul imperiyasi" asarida shunday yoziladi: "His leniency was his mistake and his inconsistency was his blunder. His own brothers were now sufficiently strong to support their own claims to the throne and there was nothing to prevent them from doing that" [2]. Humoyunning rahmdilligi taxtni egallash uchun bosh ko'targan ukalariga qarshi qilich ko'tarishiga yo'l qo'ymaydi. Oqibatda davlat boshqaruvida parokandalik yuzaga keladi. Bu siyosiy jarayonlar Humoyunning bir necha yil oila a'zolari va o'ziga sodiq navkarlari bilan bir necha yil Eron shohi Taxmasp saroyida sig'indi bo'lib yashashiga, sargardonlikda umr kechirishiga sabab bo'ldi. Ammo hayotining so'nggi yillarida qayta taxtni qo'lga kiritadi, qisqa bo'lsa-da odilona siyosat yuritadi. Humoyun Mirzo yoshligidan ilm-fanning turli sohalarida bilim olgan, she'riyatda otasidan meros bo'lib o'tgan iqtidori bilan birmuncha muvaffaiyatga erishgan atqli shoirlardan edi. Astronomiya va geografiya sohalarida koplak ilmiy tadqiqotlar olib borganligi ham sir emas. U o'z fuqarolarining yaxshi hayot kechirishlari xususida qayg'urganligi, olimlar-u din peshvolari, musiqachilar-u adabiyotshunoslar erkin ish yuritishlari uchun sharoitlar yaratganligi haqida S.M.Jaffar asari orqali bilib olishimiz mumkin [2].

Boburga munosib davomchi bo'la olgan, Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirgan, ko'plab tarixchi va adabiyotshunoslarning qiziqishiga sabab bo'lgan Humoyun Mirzoning o'g'li Akbarshoh haqida ham J.Neru o'z mulohazalarini bildiradi. Uning yozib qoldirishicha, Akbarshoh juda qiziquvchan, har qanday diniy yohud dunyoviy bilimlarni ko'z ochib yumguncha egallashga ishtiyoqmand bo'lgan hukmdor sifatida tanilgan. U harbiy sohada ko'proq jangovar fillar faoliyatini rag'batlantirgan, kemasozlik va dengiz savdosi mexanika sohasining rivojiga xizmat qilgan. Ammo XV asrda butun dunyo texnika taraqqiyotining avj pallasida bo'lgan bir paytda, Hindiston bundan ming-ikki ming yil avval qanday bo'lsa shunday qoloq davlatligicha qolmoqda edi. Akbar hukmronligi davri, ya'ni XVI asrda esa Yevropa davlatlarida insoniyat hayotida inqilobiy taraqqiyot boshlanmoqda edi. Ular tabiat kuchlaridan oqilona foydalanib, insonlar turmush tarizida ijobiy o'zgarishlar qilayotgan davrda, butun Osiyo mamlakatlari go'yoki uyqudagidek harakatsiz edi va kundalik hayotda, qishloq xo'jaligida ham haligacha inson qo'l

mehnatiga tayanib ish ko'rishardi. Neruning nazarida, qiziquvchan Akbar dunyo sahnasida bo'layotgan o'zgarishlardan boxabar bo'lib, Hindiston ijtimoiy hayotiga ham shu yangiliklarni olib kirishi mumkin edi, ammo u o'sha davrda diniy qarama-qarshiliklarga bartaraf etib, xalqlarni birlashtirish, tinchlikni mustahkamlash bilan band edi [5]. Akbarning diniy ayirmachilikka chek qo'yganligi, hindlarning e'tiqodiga, milliy urf-odatlariga ehtirom ko'rsatganligi oqibatida Hindistonda har tomonlama mustahkam hokimiyat yaratildi. Buyuk Akbar yarata olgan mustahkam davlat poydevori xususida mashhur hind adibi S.M.Jaffar o'zining "Mughal Empire from Babur to Aurangzeb" ("Boburdan Avrangzebga bo'lgan davrda Mo'g'ul imperiyasi") nomli asarida shunday yozadi: "His grandson, Akbar the Great, not only enlarged and consolidated his heritage but constructed that administrative and fiscal system which gave a definite form and cohesion to the Mughal Sovereignty. By peaceful methods and beneficial legislation, by reconciliation and universal toleration, he won over the discontented natives to his side and reconciled them to the ideas of the Mughal Rule. His peaceful policy, pursued by his successors, proved the corner-stone of the Mughal Empire and contributed incalculably to its strength and stability" [2]. S.M.Jaffarning ta'kidlashicha, Akbar bobosi Hindistondan asos solgan davlat hududlarini yanada kengaytirdi, chegaralarini mustahkamladi, aniq shakl va mazmunga ega bo'lgan, xalq manfaatlariga uchun xizmat qilgan ma'muriy boshqaruv hamda soliq tizimlarini yaratdi. Xalqparvar podshoh mahalliy tub aholiga hurmat nazari ila qarab, maxsus qonunlar orqali ularning huquqlarini himoya qiladi. G'ayridinlardan undiriladigan Jizya solig'ini bekor qilgan ilk Boburiy hukmdor ham aynan Akbarshoh edi. Bundan tashqari, u davlatda yosh bolalar o'rtasidagi nikohni chekladi, ayollarning vafot etgan turmush o'rtog'ining jasadi bilan birga kuydirilishi udumi hisoblangan "Sati" odatini bekor qildi, hattoki beva qolgan ayollarning qayta oila qurishini rag'batlantirdi [2]. Akbarning mana shunday tinchlikparvar siyosati Boburiylar davlati poydevori mustahkamligi va barqarorligi uchun beqiyos hissa qo'shdi.

Ko'plab tarixiy manbalarda ma'lumot berilishicha, Hindistonda Boburiylar hokimiyati aynan Avrangzeb hukmronligi davridan boshlab zaiflasha boshlaydi. J.Neruning yozishicha, bunga asosiy sabab podshohning noto'g'ri siyosatida edi: "Aurangzeb, far from understanding the present, failed even to appreciate the immediate past; he was a throw-back and, for all his ability and earnestness, he tried to undo what his predecessors had done. A bigot and an austere puritan, he was no lover of art or literature. He infuriated the great

majority of his subjects by imposing the old hated jeziya poll-tax on the Hindus and destroying many of their temples" [5]. Avrangzeb o'zidan oldingi hukmdorlar tajribasidan o'rnatilgan o'rniga, ular shuncha yilda oqilona siyosati natijasida erishgan tinchlikka butunlay barham beradi. San'at va adabiyot sohalariga umuman qiziqishi bo'lmagan Avrangzeb g'ayridin bo'lgan hindlardan olinadigan jizya solig'ini qayta joriy etadi, brahmanlik diniga e'tiqod qiluvchilarning ibodatxonalarini yer bilan yakson qiladi. Uning bu shafqatsiz harakatlari oddiy xalqning g'azabiga sabab bo'ladi.

S.M.Jaffar esa Shoh Avrangzeb Alamgir haqida biroz boshqacharoq ma'lumotlarni beradi. Uning ensiklopedik asarida yozilishicha, Avrangzeb uchun jizya va boshqa bir necha turdagi soliqlarni qayta joriy etishdan asosiy ko'zlangan maqsad- bu g'ayridin bo'lgan hindlarni islom dinini qabul qilishga majburlash emas, balki moliyaviy qiyinchiliklarda qolgan davlat xazinasini to'ldirish bo'lgan. Bundan tashqari, bu soliqlar doimiy ravishda undurilmagan, davlat xizmatida bo'lgan hindlar va o'ta kambag'al sharoitlarda yashovchi hindlar ham soliqlardan ozod etilgan. Avrangzebning brahmanlar ibodatxonalarini buzganligi xususidagi ma'lumotlar ham biroz noto'g'ri talqin qilinadi. Aslida, hindlar musulmonlar masjidlarini buzib, ularning o'rniga mandirlar qurishadi, Avrangzeb Alamgir esa ularni o'z o'rniga qaytaradi xolos, kelgusida esa ruxsatsiz qurilgan yangi brahmanlik ibodatxonalarining buzib tashlanishini amr etadi [2]. Mana shunday bir-biriga zid fikr-mulohazalar tarixni yanada chuqurroq o'rganishga undaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Boburiylar sulolasi Osiyo xalqlari, jumladan Hindiston va unga qo'shni davlatlar tarixida muhim ahamiyat kasb etganligi tufayli XX-XXI asr jahon adiblari tomonidan katta qiziqish bildirilgan. Ayniqsa, ushbu sulolaning ingliz hukumati tomonidan qulatilishi hamda Hindiston fath etilishi natijasida ingliz yozuvchilarining Boburiylar davlatchiligining asos solinish tarixi bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borishlariga sabab bo'ldi. Inglizxon hind yozuvchilarining o'z ona yurtlarida 3 asrdan ortiqroq hukmronlik qilgan Zahiriddin Bobur avlodlari haqida tarixiy, badiiy hamda ilmiy asarlar yozmasliklari albatta, bizni hayron qoldirgan bo'lardi. Bobur Mirzo o'smirlik chog'laridayoq ota yurti Andijonni tark etgan bo'lsa-da, baribir u asl o'zbek farzandi edi. O'zbekistonlik milliy yozuvchilarimizdan ham shunday nodir asarlarni kutib qolamiz. Shu o'rinda, faqatgina mashhur adiblarimizdan Pirmuqol Qodirovning tarixiy-biografik romanlari, Xayriddin Sultonov, Qamchibek Kenjalarning safarnomalari bilangina cheklanib qolishimiz bu juda achinarli holat, nazarimizda.

ADABIYOTLAR

1. Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев, муҳаррир А.Ўқтам. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б.
2. Jaffar S.M. The Mughal Empire from Babur to Aurangzeb. – Peshawar: Kissa Khani, 1936. – 491 p.
3. Muni Lal. Babur: life and times. – New Delhi: Vikas Publishing House PVT LTD, 1977. – 131 p.
4. Кадыров П. Бабур. Звёздные ночи (Переводчик: Ю. Суровцев). – Москва, 1988. – 346 с.
5. Nehru J. The discovery of India. – New York: Oxford University Press, 1994. – 581 p.
6. Qodirov P. Yulduzli tunlar (Bobur) – Toshkent: Sharq, 2018. – 544 b.
7. Rutherford A. Raiders from the North. – New York: Thomas Dunne Books, St.Martin's Press, 2009. – 434 p.
8. Steel F.A. King-Errant. – New York: F. A. Stokes company publishers, 1912. – 187 p.
9. Султонов Х. Бобурийнома. – Тошкент: Шарк, 1997. – 416 б.
10. Vyurtle F. Andijon shahzodasi (Bobur – yo'lbars). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 160 b.